



**GLOBALLASHUV SHAROITIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

PhD Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi

Oriental universiteti

ORCID: 0000-0002-7204-6986

rguli617@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola oziq-ovqat xavsizligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari haqida atroflicha tushuncha beradi. Globallashuv sharoitida oziq-ovqat sohasida xavfsizlikni ta'minlash aholi farovonligi hamda iqtisodiy taraqqiyotning muhim unsurlaridan biri hisoblanadi. Maqolada aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammolarini tizimli o'rganishning ilk davridan boshlab, hozirgi zamon olimlari tomonidan ilgari surilayotgan nazariyalar talqini hamda xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi tajribalari chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligiga turli tahdidlar hamda ularning mamlakatimizga ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiyot, globallashuv, sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari, ishlab chiqarish, zaxira, narx, oziq-ovqat ta'minoti, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, eksport, import.

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ**

PhD Исмаилова Гульчирой Толлибой кизи

Университет Ориентал

Аннотация. Данная статья представляет собой комплексное введение в научно-теоретические основы продовольственной безопасности. Обеспечение продовольственной безопасности в условиях глобализации является одним из важных элементов благосостояния населения и экономического развития. Начиная с первого периода системного изучения проблем продовольственной безопасности населения, в статье глубоко анализируются трактовки теорий, выдвинутых современными учеными, и опыт зарубежных стран в этой области. В то же время, рассматриваются различные угрозы продовольственной безопасности и их социально-экономические последствия для нашей страны.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, экономика, глобализация, промышленность, продукты питания, производство, запасы, цена, продовольственное снабжение, социально-экономическая стабильность, экспорт, импорт.

**SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF FOOD SECURITY
IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION**

*PhD Ismoilova Gulchiroy Tolliboy kizi
Oriental University*

Abstract. This article provides a comprehensive understanding of the scientific-theoretical foundations of ensuring food security. In the context of globalization, ensuring security in the food sector is considered one of the key elements of public welfare and economic development. The article deeply analyzes the theories proposed by modern scholars as well as the experiences of foreign countries in this field, starting from the early stages of systematically studying the issues of food supply for the population. Additionally, various threats to food security and their socio-economic impact on our country are discussed.

Key words: food security, economy, globalization, industry, food products, production, reserve, price, food supply, socio-economic stability, export, import.

Kirish.

Jahon miqyosida yuzaga kelayotgan keskin ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiyotda kuzatilayotgan moliyaviy inqirozlar va geosiyosiy beqarorlik hamda globallashuv sharoitida ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi keskin tushib borayotgan bir paytda, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi yanada keskinlashib shoshilinch choralar ko'rishni taqozo etmoqda. Shu bois oziq-ovqat xavfsizligi va u bilan bog'liq masalalarga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Birlashgan Millatlar tashkiloti(BMT) ma'lumotiga ko'ra, jahonda istiqomat qilayotgan 45 million aholi ochlikdan va 770 milliondan ortig'i to'yib ovqatlanmaslikdan aziyat chekayotgan bo'lsa, yaqin vaqt ichida bu ko'rsatkich yana ortishi tahmin qilinmoqda².

Bu holat nafaqat mintaqqa balki dunyoning ko'plab mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sirni keltirib chiqarishi bilan bir qatorda, har bir mamlakatni o'zining oziq-ovqat xavfsizligini, xususan aholini sog'lom ovqatlanishini ta'minlash masalasiga jiddiy yondashish zarurligini va bu davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib borayotganligini anglatadi.

Jumladan, mamlakatimizda ham bu borada samarali islohotlar olib borilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Xususan, O'zbekiston 2001-yilda Food and Agriculture Organization(FAO)ning to'laqonli a'zoligiga qabul qilingan. Shuningdek, sohaning qonunchilik asoslарини mustahkamlash yo'nalishida O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishda 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida"dagi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi" PF-5853-sonli hamda 2024-yil 16-fevraldagagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-son bilan tasdiqlangan Farmonlari, shuningdek 2024-yil 20-iyundagi "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-227-son Qarori qabul qilingan.

Shaxs, jamiyat va davlatning himoyalanganlik darajasini yuksaltirish masalasi barcha zamonlarda ham birdek dolzarb sanalgan. Kishilik jamiyatni yaraganidan buyon insoniyat turli xavf-xatarlardan holi bo'lмаган. Shu boisdan uni xavfdan holi qilish, xavfsizligini ta'minlash masalasi barchaning diqqatini tortib kelgan.

²<http://www.fao.org/3/cc2211en/cc2211en.pdf>.

Davlat va jamiyatda ijtimoiy barqarorlik hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammolarini o'rganish masalasi dunyoning deyarli barcha mamlakatlari olimlari va mutaxassislarining kun tartibidagi muhim masaladir.

Adabiyotlar sharti.

Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammolari ilk bor ingliz iqtisodchi olimi Tomas Robert Maltus (1766-1834) tomonidan ilmiy nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lib, bu borada u o'zining bir qator qarashlarini bayon etgan. Aslida ushbu tushuncha insoniyat yaratilganidan buyon uning kundalik hayotida muhim o'rinn egallagan ijtimoiy-iqtisodiy omillardan biridir.

Aytish mumkinki, so'nggi vaqtarda jahon hamjamiyatida xavfsizlikning siyosiy, iqtisodiy, insoniylik va boshqa belgilarni o'z ichiga oladigan harbiy bo'lmanan jihatlarini anglash ancha kuchaydi. Bu esa, o'z navbatida mazkur muammoni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi. Chunki, tadqiq etilayotgan masalani amaliy jihatlari ilmiy fikr-mulohazalarga tayangan taqdirdagina samarali bo'lishi mumkin.

Akademik Ilinaning (2001) fikricha "Oziq-ovqat sohasida xavfsizlik deganda, insonning, jamiyatning hayot uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda hayotiy manfaatlarni amalga oshirishni taminlaydigan agrosanoat kompleksining holati tushuniladi".

Iqtisodchi olim Ulakov (2008) "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga, oziq-ovqat inqirozining oldini olishga aholining hayotiy muhim mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini fiziologik oziqlanish me'yorlari darajasida qondirishga qaratilgan iqtisodiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali erishiladi" deb, o'z ilmiy qarashlarini ilgari surgan.

Sohada tadqiqot olib borgan Shatrvaka (2011) "Oziq-ovqat xavfsizligi" – bu mamlakat iqtisodiyotining shunday holati bo'lib, unda davlatning oziq-ovqat mustaqilligi ta'minlanadi va mamlakat aholisining ovqatlanish madaniyatini hisobga olgan holda sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan miqdordagi oziq-ovqatning jismoniy va iqtisodiy mavjudligi kafolatlanadi deb, o'z fikrlarini bayon etgan.

Bizningcha oziq-ovqat sohasidagi xavfsizlik mamlakatlarning madaniyati, atrof-muhit va geografik joylashuv ta'siri ostida shakllangan murakkab va ko'p qirrali ko'rsatkichdir. Oziq-ovqat narxlarining oshishi rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy zaif qatlamlari uchun jiddiy xavfni yuzaga keltirsa-da, ichki inflyasiya va oziq-ovqat narxlarining o'zgaruvchanligi tufayli xalqaro oziq-ovqat inqirozlarini qashshoqlikka olib keladi.

Umuman olganda "Oziq-ovqat xavfsizligi" tushunchasiga fiziologik, ekologik, agrar, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalarning o'ziga xos nazariy yondashuvlari mavjud bo'lib, zamonaviy adabiyotlarda 200 dan ortiq ta'riflar va 450 dan ortiq ko'rsatkichlar bilan izohlanadi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, quyida bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligi (OOX) konsepsiyasiga bergen mualliflik ta'riflarida OOXga ta'sir etuvchi asosiy elementlarning qiyosiy tahlilini ko'rsatib o'tishni joiz deb bildik (1-jadval).

Jadval ma'lumotlari qiyosiy tahlilidan ko'rish mumkinki, bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini aniqlashda ko'plab metodologik yondashuvlar mavjud. Shu bilan birga, har bir yondashuv faqat bir-birini to'ldiradi va "oziq-ovqat xavfsizligi" kabi murakkab hodisani har tomonlama tushunishni ta'minlaydi.

So'nggi vaqtarda ko'plab mutaxassislar tomonidan mazkur terminni yoritishda ijtimoiy tomondan yondashuvlar kuzatilmoqda. Shu bois, N.I. Saidaxmedova tomonidan berilgan ta'rif keng qamrovda yoritilganligi bilan bir qatorda, yuqorida aytib o'tilgan ko'plab ta'riflarni umumlashtiradi degan fikrga kelishimizga asos bo'ldi.

1-jadval

"Oziq-ovqat xavfsizligi" tushunchasiga berilgan mualliflik ta'riflarining qiyosiy tahlili

Mualliflar	Tushunchaning mazmuni	OOXga ta'sir etuvchi asosiy elementlar					
		Xavfsizlik	Bargarorli	Etarilik	Oulavlik	Tahdidlar	Siffatilik
1	2	3	4	5	6	7	8
V.S. Balabanov, E.N. Borisenko (2022)	OOX - ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sog'lik uchun zararsizligini ta'minlagan holda mamlakatning oziq-ovqatga bo'lgan talabini muayyan davrda iste'mol va zahiralarni yaratish asosida qondirilishini kafolatlashdir.			+			+
X.U. Belxaroev (2003)	OOX – bu shaxs, jamiyat va davlatning oziq-ovqat sohasida hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahidlardan himoya qilishdir.					+	
G.S. Bondareva (2015)	OOX – iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas qismi, milliy iqtisodiyotning ichki va tashqi tahidlardan hamda salbiy ta'sirlardan himoyalangan, jamoat ehtiyojlarini samarali qondirishni ta'minlashga qodir bo'lgan barqaror holati sifatida tavsiflanadi.		+			+	
I.G. Uchashev (2017)	OOX murakkab majmuaviy muammo hisoblanib, uning yechimi "... birinchi navbatda agrosanoat majmuasini hamda iqtisodiyotda innovatsion rivojlanishni amalga oshirish orqali hal etilishi mumkin".			+			
A.V. Gordeyev (1999)	OOX – davlat iqtisodiyoti xavfsizligining ajralmas elementi bo'lib, mavjud tizimning nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy mustaqilligini, davlat xavfsizligiga zarar yetkazmasdan fuqarolarning ehtiyojlarini ta'minlash qobiliyatini ham tavsiflaydi.	+		+			
T.M. Yarkova (2019)	OOX – iqtisodiy texnologiyalarini qo'llash orqali, xususan import o'rnnini bosish va oziq-ovqat zahiralarini shakllantirish doirasida qishloq xo'jaligi xom ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini raqobatbardosh mahalliy ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek xalqaro savdo sharoitida oziq-ovqatga qaramlikka qarshi kurash orqali aholini yuqori sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun ko'p maqsadli tizim natijalarini aks ettiruvchi iqtisodiyot va jamiyatni rivojlanish holatidir.			+			+
M.V. Tissen (2010)	OOX tushunchasi "oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik" tushunchasidan kengroq, chunki xavfsizlik aholi uchun oziq-ovqat mavjudligini anglatadi va oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish imkoniyatini o'z ichiga oladi.	+	+				
N.S. Ishenko, J. Zelenski (2020)	OOX – davlat iqtisodiyotining shunday holati bo'lib, unda har bir fuqaroga qonun talablariga javob beradigan hamda faol va sog'lom turmush tarzi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan jismoniy va iqtisodiy foydalanish kafolatlanadi.			+	+		+
H. Abulqosimov, T.S. Rasulov (2015)	OOX – mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini-o'zi, mustaqil ta'minlashga qodirligini ifodalaydi.		+	+	+		
K. Matkarimov, I. Mahkamov (2016)	OOX – mintaqada mavjud resurslardan unumli va oqilona foydalanish orqali fan-tehnika yutuqlariga asoslangan holda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan etiyojlarini qondirilishi.		+	+	+		

D.N. Saidova (2015)	OOX – mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta'minlanishini, importga bog'liqlikni minimum darajasiga erishishni ifodalaydi.			+		
F.M. Fazilov (2008)	OOX – oziq-ovqat sohasida eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnni bosishga qaratilgan strategiyalarning uyg'unlashtirilgan holda olib borilishi, mamlakat aholisi iste'mol darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va pirovard natijada oziq-ovqat xavfsizligini uzluksiz ta'minlaydi.			+	+	
N. Saidaxmedova (2020)	OOX – mamlakat asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini-o'zi ta'minlashi asosida oziq-ovqat mustaqilligiga erishish negizida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ichki manbaalari va maqbul darajadagi importni muvofiqlashtirish orqali fuqarolarning faol va sog'lom hayot tarzini ta'minlash uchun zarur bo'lgan sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlariga mamlakatda belgilangan iste'molning ratsional me'yorlaridan kam bo'lмаган hajmlarda jismoniy(miqdoriy), iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan ishonchli va barqaror erishishni ifodalaydi.		+	+	+	+

Bizningcha oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli tushuncha bo'lib, birinchi navbatda mustaqil va suveren davlatni boshqa davlatlarga aynan oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan tobe emasligini bildiradi. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va mamlakat suvernitetini saqlab qolishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida deduksiya, tasniflash, umumlashtirish hamda taqqoslash kabi ilmiy-nazariy uslublardan foydalilanigan. "Oziq-ovqat xavfsiligi" tushunchasining fanga kirib kelishi va rivojlanish tarixi retrospektiv usul orqali batafsil o'rganilgan. Ilmiy izlanish va tadqiqot uchun zaruriy normativ-huquiy hujjatlar statistik ma'lumotlarni jamlash hamda tipologik tahlil usullari asosida tadqiq qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Rivojlangan davlatlarda oziq-ovqat xavfsizligiga mamlakat xavfsizligining asosiy yo'nalishi sifatida qaraladi. Uning mavjudligi nafaqat iqtisodiy jihatdan tavsiflanadi, balki mavjud tizimning siyosiy mustaqilligiga ziyon yetkazmagan holda o'z fuqarolari manfaatlarini ta'minlashga qodirligini ifodalaydi.

So'nggi vaqtarda jahonda yuz berayotgan global mashuv jarayonlari, xususan geosiyosiy vaziyat hamda jahon mamlakatlari iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan salbiy tendensiyalar mamlakatlar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ta'kidlash joizki, o'z tabiatiga ko'ra global muammolar turli xil, ammo ularni hal qilish zarurati esa bitta maqsadni – insoniyatning xavfsiz rivojlanishini ta'minlashni nazarda tutadi. Oziq-ovqat muammosi dunyoda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish geografiyasi, ularni iste'mol qilish geografiyasiga to'g'ri kelmasligi tufayli yer yuzida oziq-ovqat taqchilligi mavjudligida namoyon bo'ladi. Oziq-ovqat muammosi resurslarga asoslangan, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ekologik xarakterga egadir.

O'tgan asrning oxiriga kelib, oziq-ovqat xavfsizligi hamda unga oid tushunchalar keng doiradagi mutaxassislar tomonidan tobora ko'proq qo'llanila boshladi. "Xavfsizlik" tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, u butun insoniyat, davlat yoki iqtisodiy tizimning normal faoliyat yuritishi, rivojlanish uchun salbiy, zararli ta'sirlardan, xavf-xatarlardan saqlanish, himoyalanish holatini ifodalaydi. Mazkur qoida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham birdek ahamiyat kasb etadi.

1943-yilda AQSHda BMT tarkibida Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi (FAO – Food and Agricultura Organization, FAO) tashkil etildi. Ushbu xalqaro tashkilotning asosiy maqsadi – ochlikning oldini olish va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, ikkinchi tomondan statistika organ vazifalarini bajarishga, dunyodagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi holati haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tashkilotga a'zo davlatlarga tegishli tavsiyalar berishdan iborat edi.

FAOning 1996-yildagi sammitida butunjahon oziq-ovqat xavfsizligining Rim deklaratsiyasi (1996) qabul qilindi. Deklaratsiyada "oziq-ovqat xavfsizligi borchha odamlar o'z oziqlanish ehtiyojlari va shaxsiy istaklariga binoan hamda faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga jismoniy va iqtisodiy jihatdan ega bo'la olish" deb ta'rif berilgan bo'lsa, 2010-yilda o'tkazilgan sammitda ushbu ta'rifa o'zgartirish kiritilib, "oziq-ovqat xavfsizligi bu – barcha insonlarning hamma vaqt faol va sog'lom hayotni ta'minlash uchun o'z oziqlanish ehtiyojlari va istaklarini qondirishga yetarli miqdorda, xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lishning jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy imkonitlariga egaligidir", deb ko'rsatildi.

Ta'kidlash lozimki, oziq-ovqat huquqi inklyuziv huquqdir. Bu insonning sog'lom va faol hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan yetarli miqdordagi ozuqa moddalariga ega bo'lish huquqidir. Oziq-ovqat huquqi insonning munosib turmush darajasiga ega bo'lish huquqiga erishish imkoniyatlaridan biridir va shu munosabat bilan davlatlar o'z aholisi uchun oziq-ovqat huquqini kafolatlash majburiyatiga ega.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasi 1-bandida shunday deyilgan (Deklaratsiya, 1948): "Har bir inson o'zi va oilasining sihat-salomatligrini va forovonligini asrash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga, shu jumladan oziq-ovqat, libos, uy-joy, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmat huquqiga hamda ishsiz qolganda, betobligida, nogironligida, beva bo'lib qolganida, qariganida yoki o'ziga bog'liq bo'lmasan holatlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag'i bo'lmay qolganida ta'minlanish huquqiga egadir".

2-jadval

Global oziq-ovqat xavfsizligi reytingini hisoblash ko'rsatkichlari

Komponentlar	Ko'rsatkichlar
Oziq-ovqatning iqtisodiy qulayligi	oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan xarajatlar; daromadi yashash minimumdan past bo'lgan aholi soni; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot; oziq-ovqat sohasida iqtisodiy xavfsizlikning mavjudligi va boshq.
Oziq-ovqatning jismoniy mavjudligi	aholi uchun oziq-ovqat mavjudligi; mahsulotlarni saqlash uchun binolarning mavjudligi; mamlakatdagi yo'llarning infratuzilmasi; korrupsiya darajasi va boshq.
Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi	oziq-ovqat mahsulotlarining xilma-xilligi va xavfsizligi; undagi zarur vitaminlar va boshqa komponentlarni mavjudligi; ichimlik suvining sifati va boshq.
Tabiiy resurslar	suv va yer resurslarining mavjudligi; qurg'oqchilik; demografik o'zgarishlar va boshq.

Manba: internet ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, avvalo insonning eng muhim huquqi – yashash huquqini amalga oshirishga ijtimoiy yo'naltirilganlikda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining (2023) 23-moddasi 1-xatboshida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi" hamda 25-moddasida "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir

jinoyatdir" deb belgilab qo'yilgan. Insonlar hayotiy ta'minotining eng muhim asosi esa bu – oziq-ovqat ta'minati hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib, jahon tajribasida oziq-ovqat xavfsizligini belgilash me'yorlari, komponentlari hamda reyting ko'rsatkichlarini hisoblash uslubiyoti mavjud bo'lib, amaliy jihatdan mazkur uslubiyotdan keng foydalanib kelinmoqda. Xususan, global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi tashkil etilganidan beri, dunyo mamlakatlarda siyosat mezoni va investitsiyalar uchun diagnostika vositasiga aylangan. Shu o'rinda quyida global oziq-ovqat xavfsizligi reytingini hisoblash ko'rsatkichlarini keltirib o'tamiz (2-jadval).

AQSHning "The Economist Intelligence Unit" kompaniyasi jahonda global oziq-ovqat xavfsizligi indekslarini hisoblab kelayotgan bo'lib, markaz tomonidan 2022-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, O'zbekiston jahon mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligi reytingida 113 mamlakat orasida 57,5 ko'rsatkich bilan 73-o'rinni egalladi. Quvonarli jihatbu ko'rsatkich yildan-yilga yuqorilab bormoqda (2020-yilda 83 o'rinni, 2021-yilda 78-o'rinni) (3-jadval).


3-jadval

Jahon mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligi holati

Mamlakatlar nomi	Egallagan o'rni	Mamlakatlar nomi	Egallagan o'rni
Finlandiya	1	Ozarbayjon	66
Irlandiya	2	Ukraina	71
Kanada	7	O'zbekiston	73
AQSH	13	Tojikiston	75

Ko'plab izlanuvchilar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mamlakat yoki mintaqani importdan mustaqilligini, shuningdek favqulotda holatlarda vaziyatning barqaror bo'lishi bilan bog'liq strategik zaxiralarni shakllantirish va doimiy ravishda yangilab borish orqali amalgaloshirish mumkinligini ta'kidlaydilar (Ibragimov, 2010). Albatta, bunda mahalliy oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligi va natijada import o'rnini bosish muhim ahamiyatga egadir.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sayyoramiz aholisi yiligi tahminan 1,4 foizga oshib bormoqda, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 0,9 foizni tashkil qiladi. Mazkur ko'rsatkichlar shu tartibda saqlanib qolsa, dunyoda och va to'yib ovqatlanmaydigan insonlar soni ortib boradi (Ilina, 2009).



1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligining darajalari (Сибиряев, Жилицов и др. 2017)

Ayrim tadqiqotchilar oziq-ovqat xavfsizligini 3 darajaga bo'lishni taklif qilmoqdalar. Ya'ni, global darajadagi oziq-ovqat xavfsizligi (jahon aholisining oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik

darajasi bilan xarakterlanadi), davlatning oziq-ovqat xavfsizligi (mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik darajasi) hamda hududlar darajasida oziq-ovqat xavfsizligi (hududlar aholisini o'zini-o'zi zarur turdag'i mahsulotlar bilan ta'minlash)ni tashkil etadi (1-rasm).

Davlatning oziq-ovqat xavfsizligining holati bevosita oziq-ovqatning real iste'moli va sifatiga, mahalliy ishlab chiqarishning yetarligiga, aholining daromadlariga, import qilinadigan tovarlar hajmining pastligiga va ularni yetkazib berishning ishonchligiga, logistika koridorlarining qulayligi va boshqa omillarga bevosita bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

mamlakat oziq-ovqat xavfsizligiga bo'lishi mumkin bo'lgan ehtimoliy ichki va tashqi tahdidlarni o'z vaqtida prognozlash, fuqarolarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimining doimiy tayyorligi, strategik oziq-ovqat zahiralarini shakllantirish hisobiga, ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirish;

mamlakatning oziq-ovqat mustaqillagini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqarish va xom ashyni barqaror rivojlantirish;

mamlakatning har bir fuqarosiga faol va sog'lom turmush tarzi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishning belgilangan oqilonaga me'yorlariga mos keladigan hajm va assortimentdagi xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan jismoniy va iqtisodiy ta'minlashga erishish.

Jahonda globallashuv sharoitida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tamoyillari o'zgarib borayotgan, ayrim hollarda oziq-ovqat mahsulotlari turli maqsadlarni ro'yobga chiqarish vositasiga aylanayotgan bugungi kunda, masalaga mutlaqo yangicha metodologik yondashuvni shakllantirish zaruriyatini kun tartibiga qo'yamoqda.

Masalani xorij tajribasi misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, jumladan 2021-yilda Oq uy tomonidan AQSHga zarur turdag'i oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish zanjirini qayta tiklash bo'yicha savdo va iqtisodiy siyosatni yo'lga qo'yish bo'yicha "Milliy xavfsizlik bo'yicha oraliq strategik boshqaruv" nomli hujjat ishlab chiqilgan.

Shuningdek, bu borada Kanadaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tajribasi ham e'tiborga molikdir. 1998-yilda ishlab chiqilgan "Kanadaning oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha harakatlar rejası" oziq-ovqat ta'minotining o'sishi aholi turmush darajasini oshirishning muhim omili, degan g'oyaga asoslanadi. Rejaga muvofiq, hukumat idoralari va jamoat tashkilotlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida jahon hamjamiyati faoliyatida ishtiroy etishining aniq harakatlari belgilab berilgan. Bundan tashqari, mamlakat aholisining katta qismi borish uzoq bo'lgan hududlarda istiqomat qilishi bois, hukumat tomonidan shimoliy hududlar bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqilib, olis hududlarda yashovchi fuqarolarga oziq-ovqat buyurtmalari uchun subsidiyalar berilishi yo'lga qo'yilgan (Strokov, 2014).

Argentinada esa, ayrim turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari narxlari oshirilishiga cheklovlar qo'yildi va eksport tariflari ko'tarildi.

Singapurda sun'iy go'sht yetishtirish yo'lga qo'yilgan.

Rossiya Federatsiyasida (RF) inflyatsiyani ushlab qolish maqsadida, oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga kvotalar joriy etildi va hukumat tomonidan ishchi guruh tashkil etilib, mahsulotlar narxlari monitoring qilib borilishi belgilangan.

Hozirgi davrda Yevropa Ittifoqi(YI) davlatlarining agrar siyosati xavsizlik tizimini takomillashtirish va kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarni bartaraf etishga yo'naltirilgandir. YIning aksariyat mamlakatlarida, jumladan Germaniyada oziq-ovqat xavfsiligini ta'minlashda asosan iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, oziq-ovqat mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta'minlash, tashqi tabiiy muhitni asrash muhim vazifalardan deb, belgilab olingan (Krilatix, 2016).

AQSHning agrosanoat ishlab chiqarishidagi assosiy raqobatchisi Xitoy bo'lib, amalga oshirilgan islohotlar natijasida dunyo ekin maydonlarining 7 foiziga ega bo'lgani holda, yer yuzi aholisining 18,3 foizini tashkil etuvchi ushbu mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash,

bu borada xavfsizlikka erishgan. Xitoyning bu tajribasi ko'plab mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga egadir.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda xorij tajribasidan samarali foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Xususan, RF, Belorus va Qozoqiston respublikalarida oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha doktrinalar ishlab chiqilgan bo'lib, fikrimizcha "O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi doktrinasi" kabi normativ hujjatlarni ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud va bunda quyidagi asosiy strategik vazifalarni bajarishni nazarda tutishi lozim:

oziq-ovqat xavfsizligini tartibga soluvchi zamonaviy va samarali qonunchilik bazasini ishlab chiqish;

oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid soluvchi omillarni oldindan prognoz qilish mexanizmini shakllantirish;

mamlakatning oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlashga qodir mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish;

sog'lom turmush tarzi talablariga javob beradigan ratsional ovqatlanish normalarini joriy etish;

oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularni yetishtirish va saqlash jarayoni xavfsizligini ta'minlash.

Aynan oziq-ovqat xavfsizligini tartibga soluvchi zamon talablariga mos bo'lgan qonunchilik bazasini shakllantirish, mamlakat milliy manfaatlarini va birinchi navbatda, iqtisodiyotning agrar sektorini himoya qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi (*eslatma: 1997-yilda qabul qilingan "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsiligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi*).

Tadqiqot natijalariga tayangan holda aytishimiz mumkinki, mamlakat oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlashining quyidagi darajalariga ega bo'lgandagina xavfsiz va barqaror oziq-ovqat ta'minotiga ega deb qaralishi mumkin:

oziq-ovqat profitsiti – mamlakat asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlangan, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlarini jahon bozorlariga eksport qilish uchun ishlab chiqarish quvvatlari va zahiralariga ega;

oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi barqaror ta'minlash – hudud assosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'zini o'zi to'liq ta'minlaydi va oziq-ovqat mahsulotlarini mintaqaviy bozorlarga eksport qiladi;

oziq-ovqat bilan o'zini o'zi chegaraviy ta'minlash – hudud ruxsat etilgan maksimal darajada oziq-ovqat bilan o'zini o'zi ta'minlaydi, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari qo'shni davlatlardan import qilinadi;

oziq-ovqat bilan ta'minlashga tahdid – bu hududda ocharchilik, aholining tabiiy va emigratsion depopulyasiyasi mavjudligidan darak.

Xalqaro amaliyotda ham oziq-ovqat mahsulotlari importi o'rtacha 15-20 foiz darajasida belgilangan chegaraviy qiymatlardan ortib ketsa, har qanday davlat o'zining oziq-ovqat mustaqilligini yo'qotadi. Biroq oziq-ovqatning ayrim turlarini yuqori importga qaramlik oziq-ovqat xavfsizligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Adabiyotlar/ Йумепамып/ Reference:

Deklaratsiya (1948). BMTning Inson huquqlari umumjahon deklariyatsiyasi 10-dekabr.

Deklaratsiya (1996) Rome Declaration on World Food Security. 1996. Rome.
<http://www.fao.org/docrep/003/w3613e/w361e00.HTM>

Fazilov F.M. (2008) Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: iqt. fan. nom. diss. ...avtoref. – T.: JIDU.

Konstitutsiya (2023) O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, 1992 yil 8 dekabr. (Yangi tahrir 01.05.2023 y.). www.lex.uz

Matkarimov K., Mahkamov I., Bekmirzayev M. (2016) O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining istiqboli // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnalı. - №6.

Saidaxmedova N. (2020) Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va ustuvor yo'nalishlari. iqt. fan. dok. diss. avtoref. – T.: O'MU.

Abulqosimov H., Rasulov T.S. (2015) O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'llari. – T.: Fan va texnologiya.

Балабанов В.С., Борисенко Е.Н. (2022) Продовольственной безопасности: международные и внутренние аспекты. М.:Экономика.

Белхароев Х.У.(2003) Правовое обеспечение продовольственной безопасности современной России: автореф. дис. канд. юр. наук. М.

Бондарева Г.С. (2015) Продовольственная безопасность региона: критерии и пороговые значения. «Научный альманах» №9(11).

Гордеев А.В. (1999) Продовольственное обеспечение России (вопросы теории и практики) – М.: Колос.

Ибрагимов М.Т., Дохолян С.В. (2010). Методические подходы к оценке состояния продовольственной безопасности региона// Региональные проблемы преобразования экономики. №4, стр. 172-193.

Ильина З.М. (2009) Продовольственная безопасность: тенденции и перспективы. «Белорусская Думка» №4. Стр. 22-31.

Ильина З.М. (2001) Научные основы продовольственной безопасности. Минск, ООО «Мисант», стр. 38-39.

Ищенко Н.С., Зелинский Ж. (2020) Продовольственная безопасность-фактор геополитической стабильности и устойчивого развития государства. Электронный журнал. «Desecuritate.uph.edu.» №1(6).

Крылатых Э.Н., Мазлова В.З., Межонова Н.В. (2016) Национальная экономика: обеспечение продовольственной безопасности в условиях интеграции. Монография. НИЦ «ИНФРА», стр. 52.

Сайдова Д.Н., Расулова Д.Т. (2015) Проблемы обеспечения продовольственной безопасности в Республике Узбекистан // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi. – T.: ToshDAU, №2.

Сибиряев А.С., Жилцов С.А., Сахбиева А.И. (2017) Фактор инновационной активности при обеспечении продовольственной безопасности Российской Федерации// Вестник НГИЭИ. №2 (69). стр. 117-124.

Строков С.Н. (2014) Механизм обеспечения продовольственной безопасности Канады // Никоновские чтения. №19. стр. 331-332.

Тиссен М.В. (2010) Статегические направления обеспечения продовольственной безопасности. Г. Москвы. Автореф. дисс. на соис. уч степ. докт. экон. наук – Москва.

Улаков С.Н. (2008) Продовольственная безопасность как экономическая категория и её роль в обеспечении национальной безопасности, Вестник КарГУ. №3. стр. 27-28.

Учашев И.Г., Санду И.С., Нечаев В.И. (2017) Приоритетные направления инновационного развития АПК современной России. Методологические подходы: Монография. – М.: Научный консультант.

Шатравка А.С. (2011) Совершенствование системы обеспечения продовольственной безопасности Российской Федерации. Дис.соис.на уч.степ. канд.эк.наук. Москва, стр. 19.

Яркова Т.М. (2019) Продовольственная безопасность: Российский опыт и зарубежная практика: монография / Пермский государственный аграрно-технологический университет – Пермь: ИПЦ «Прокрость».